

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT

DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ONA TILI TA'LIMIDA O'QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
anjuman materiallari

UO‘K: 494.375:371.3

KBK: 74.261.4

O - 56

Ona tili ta’limida o‘qitish va baholash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Elektron nashr. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – 375 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi tomonidan tayyorlangan.

Mas’ul muharrir:

M. Abdullayeva – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------------|--|
| Q. Yo‘ldoshev | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori. |
| A. Sobirov | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori. |

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

- | | |
|-----------------------|---|
| G. Jo‘rayeva | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori. |
| K. Mavlonova | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| D. To‘xliyeva | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| H. Baxtiyorova | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi magistranti. |
| Y. Xomidjonova | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi magistranti. |
| M. Nomozova | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi magistranti. |
| Sh. Tursun | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi magistranti. |

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti Kengashining 2022-yil 4-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

7. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.

MATN TUZILISHINI O'RGANISHDA QO'LLANADIGAN QOIDALAR TAVSIFI

Klaraxon Mavlonova, Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida o'quvchilarni matn tuzilishiga oid qoidalar bilan tanishtirish zarurati, yozma nutqda qo'llanadigan matn birliklariga oid qoidalar mazmuni, ularning tasnif hamda tavsifi, qoidaning qat'iy hukm tarzida ifodalanishi, termin, ta'rif, tavsif, tasnif bilan qoidaning farqli jihatlari, matn tuzilishiga oid qoidalarni amaliyot, nutqiy tajriba orqali o'zlashtirishga yo'naltirish lozimligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *matn, matn qismlari, til hodisalari, lingvodidaktik me'yor, joriy (taktik) qoidalar.*

O'zbek tilshunosligidagi barcha tushuntirishlar yangi til hodisasini anglatish, tasnifiy o'rni ko'rsatish, unga ta'rif berish, tavsiflash, nihoyat, qo'llanishini qoida bilan izohlash va qat'iylashtirish mazmunida bo'ladi.

Tilshunoslikning adabiy til me'yorlarini umum amal qiladigan tarzda qoidalashtirish ustuvor ahamiyatga ega. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qoidaning baza, asos, poydevor, tub, qonun-qoida, nizom ekanligi aytilib, quyidagi uch xil ma'nosi keltirilgan: 1. Turli hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni ifodalovchi ma'lum sistema, amal va sh.k.larning asosini tashkil etuvchi tartib, qonun. 2. Biror ish-harakat, amalning qanday bajarilishi haqidagi rasmiy ko'rsatma, yo'l-yo'riq yoki umum tomonidan qabul qilingan tartibot. 3. Rasm, odat [Ўзбек тилининг изохли луғати, 2020: 324]. Tildagi qoida tushunchasining ma'nosi ko'proq ikkinchi izohga mos keladi: qoidani ko'rsatma, yo'l-yo'riq deb ham, umum tomonidan qabul qilingan tartibot deb ham, qonun-qoida deb ham anglash mumkin.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tili grammatikasi" kabi kitoblarda har bir til hodisasi termin, ta'rif, tasnif, tavsif, qoida shaklida bayon etilgan. Maktabda ona tili ta'limi uchun ular qisqa, ixcham shaklda beriladi. Termin, ta'rif, tavsif, tasnif til hodisasini nutqda qo'llash uchun ko'rsatma, yo'l-yo'riq vazifasini bajarmaydi. Faqat qoidagina shunday xususiyatga ega.

Y.S.Antonovanning fikricha, o'qituvchi o'qitish ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun shuni tushunib olishi kerakki, o'zi darsda o'quvchiga uzatayotgan ma'lumotlar axborot, ya'ni kelgusidagi bilim yoki malaka uchun ashyo hisoblanadi, xolos. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati o'quvchilarda olinayotgan axborotlarni bilimga aylantirish malakasini shakllantirish bilan shartlanadi [Антонова, 2007: 10]. Boshqacha aytganda, qoida til birligini to'g'ri qo'llash haqidagi zaruriy bilimdir.

O'quvchi shu bilim bilan qurollangan taqdirdagina to'g'ri, savodli so'zlay oladi, fikrini yozma ifodalay biladi.

Matn tuzilishiga doir qoidalarini bayon qilishda o'qituvchi ularni mutlaqo yangi til birliklari deb bilmasligi, shuning uchun termin va unga ta'rif, til sathiga mansubligini ko'rsatuvchi tasnif, til birligiga doir tavsiflarni darslik asosida o'rganilgan deb hisoblashi va bevosita matniy birlikka doir qoidanigina ajratib olishi mumkin va bu to'g'ri bo'ladi.

Til birliklari sirasida mustasno holatlarda qo'llanadigan ko'rsatma, yo'l-yo'riqlar ham mavjud bo'lgani uchun ular asosiy qoida sifatida emas, balki eslatma tarzida berilishi kerak. Demak, qoidalar ikki xil bo'ladi: asosiy qoidalar, eslatma-qoidalar. Masalan:

Eslatma: *Va, hamda, ham* biriktiruv bog'lovchilari gaplarni (qismlarni) tenglash, biriktirib bog'lash uchun xizmat qilmaydi, ular qo'shma gaplar hosil qilishdagina qatnashib, ko'proq sabab-natija ma'nosini ifodalaydi.

Yoki:

Qoida. *Axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na ... na* so'z yuklamalari ba'zan ikki mustaqil gapni yoki matn qismlarini o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi.

Eslatma: *-mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a* singari qo'shimcha-yuklamalar gaplarni o'zaro bog'lash uchun deyarli ishlatilmaydi.

Yuqoridagi ikkala eslatma o'quvchilarni til birliklari bilan bog'liq mustasno holatdan: gapni gapga bog'lovchi vositalar emasligidan xabardor qiladi.

Metodik adabiyotlarda qoidalarning quyidagi turlariga ham e'tibor qaratiladi: yod olish darajasida o'zlashtirish talab etiladigan qoidalar, joriy (taktik) qoidalar, istiqbolda asqatadigan (strategik) qoidalar, variativ qoidalar. Lekin matn tuzilishiga doir qoidalar, asosan, joriy (taktik) qoidalar tusida bo'lishi kerak, chunki qoida bilan tanishilgandan keyinroq nutqiy mashqlarga o'tiladi, qoida mashq jarayonida undan amalda foydalanish orqali o'zlashtiriladi.

Nazariy ma'lumotlar og'zaki nutq uchun beriladigan bilimlarda o'ziga xos me'yorlar bilan bayon etilishi, yozma nutq talablari esa muayyan qoidalar majmuasi sifatida ta'riflanishi kerak. Masalan, og'zaki nutqda so'z takrorining ko'p uchrashi (keyin, keyin, innaykeyin...), matniy ma'nodoshlarga oz miqdorda murojaat etilishi (*kerak, zarur, lozim, darkor* ma'nodoshlaridan faqat biri, ko'pincha *kerak* so'zi qo'llanishi) tabiiy hisoblanadi. Yozma nutqqa nisbatan olsak, bunday holatlar uslubiy g'alizliklar deb qabul qilinadi.

Odatda, matn deganda ko'proq yozma nutq nazarda tutiladi: mavzu, sarlavha, epigraf, xatboshi, gaplarning chegaralarini belgilash, matn qismlari, tinish belgilari yozma nutqqa taalluqli. Demakki, matn tuzilishiga doir qoidalarning aksariyat qismi ham yozma nutq uchun mo'ljallanadi.

Shubhasiz, matn tuzilishiga oid qoidalar mazmunini belgilashda quyidagi kabi lingvodidaktik me'yorlardan kelib chiqiladi:

- 1) tilshunoslikning so'nggi yutuqlarini nazarda tutish;
- 2) amaldagi ona tili darsliklari asosida boshlang'ich sinflardan e'tiboran o'rganiladigan mavzularni hisobga olish;

3) metodik adabiyotlardagi tavsiyalarni, ayniqsa, o‘quvchilar nutqida yo‘l qo‘yilayotgan matniy xatolar va ularning tasniflarini ko‘zda tutish.

Matn tuzilishida qoidalar berish shart bo‘lmagan til hodisalari uchraydi. Masalan, ritorik so‘roq gapning matnga qay tarzda kiritilishi lozimligi aytilmaydi. U kuzatishlar natijasi sifatida empirik, intuitiv anglanadi.

Qoidalashtirishga nisbat berib aytganda, til hodisalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) qoida bilan tushuntirilmaydigan til hodisalari;
- 2) qoida yordamida tushuntiriladigan til hodisalari;
- 3) darslikdagi nazariy ma‘lumotning o‘zigina yetarli bo‘ladigan, qoidani misol keltirish yo‘li bilan kengaytiradigan matniy til hodisalari;
- 4) qoidadan tashqari qo‘shimcha izohlarni taqozo etadigan til hodisalari;
- 5) yangi tushunchani anglatish asosida beriladigan qoidalar.

Quyida ushbu til hodisalariga alohida-alohida to‘xtalamiz.

1. Matn qismlarining ichki tuzilishida ba‘zan xulosa shart emasligi va boshqa shu kabi holatlar qoida bilan tushuntirilmaydigan matniy til hodisalari sirasiga kiradi. Bu o‘rinda zaruriyatga qarab eslatma tipida izoh berish usulidan foydalanish mumkin. Masalan: “Rivoya-matn, tasvir matnning qismlarida ko‘pincha xulosa gap bo‘lmaydi”. Bunday izohlar qoida sanalmaydi.

2. Matn, uning qismlari bilan bog‘liq aksariyat holatlar qoida yordamida tushuntiriladi. Ba‘zan qoida yo‘riq mazmunida bayon qilinsa, ba‘zan tavsifga o‘xshab ketadi. Masalan, quyidagi qoidalar tavsif mazmunida:

Ishonch (albatta, shaksiz), gumon (ehtimol, chamasi, shekilli), quvonch, afsuslanish (attang, afsuski) fikrning tartibi (avvalo, avvalambor), fikrni xulosalash (xullas, demak, umuman), tasdiq (darhaqiqat, haqiqatan), fikrni dalillash (masalan, jumladan) ma‘nolarini ifodalovchi modal so‘zlar ikki mustaqil gapni va matn qismlarini sanalgan ma‘nolar asosida bog‘lash uchun xizmat qiladi.

Matnda ikkinchi gap (qism) birinchi gapga (qismga) bunday, shunday, shuncha kabi olmoshlar, bu kabi, shu singari, shunga o‘xshash birikmalari yordamida o‘xshatish ma‘nosida bog‘lanadi.

Quyidagi qoidalar qat’iy yo‘riq mazmunida:

Biror olim, atoqli adibning so‘zidan (asaridan) olib keltirilgan fikr (sitata) matnga hikmatli so‘z, ko‘chirma gap tarzida kiritiladi.

Mavzu so‘zidan keyin ikki nuqta qo‘yilib, qo‘shtirnoq ichida oxiriga nuqta qo‘ymasdan mavzu nomi joylashtiriladi.

3. Darslikdagi nazariy ma‘lumot(ta’rif, tavsif, tasnif)ning o‘zigina yetarli bo‘ladigan, qoidani misol keltirish yo‘li bilan kengaytirish orqali anglatiladigan matniy til hodisalari. Masalan:

O‘zaro zidlik munosabatida bo‘lgan uyushiq bo‘laklar yoki gaplarni bir-biriga bog‘lab keluvchi ammo, lekin, biroq bog‘lovchilari zidlov bog‘lovchilari sanaladi [Ona tili, 2017: 97].

O‘zaro tobe munosabatida bo‘lgan gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan bog‘lovchilar ergashtiruvchi bog‘lovchi sanaladi [Ona tili, 2017: 102].

4. Matn tuzilishiga doir ayrim qoidalar qo'shimcha izohlarni taqozo etadi. Bunday til hodisalari qoidada tilga olingan til hodisalarini ayrim-ayrim izohlash zaruriyati bilan amalga oshiriladi. Masalan:

Insho mavzusi sarlavha tarzida satr o'rtasida yozilib, qo'shtirnoq ichiga olinmaydi, ba'zan oxiriga nuqta qo'yiladi: Bir tomchi suv. Aksariyat holatlarda sarlavhadan keyin nuqta qo'yilmaydi.

Bosma manbalarda matnga sarlavha qo'yilib, bosh harflar bilan yoziladi: BIR TOMCHI SUV.

Sarlavha narsa-buyum, ish-harakat, belgining holatini atash (atov gap tarzida nomlash) ma'nosida qisqa ta'riflanadi: "Ona mehri", "Yurt ravnaqi yo'lida" kabi.

Ushbu qoidaning ikkinchi va uchinchi abzaslari qo'shimcha izoh berish, til hodisasining qo'llanish jihatlariga aniqlik kiritish mazmunida ifodalangan.

5. Yangi tushunchani anglatish asosida beriladigan qoidalar. Masalan:

Kichik mavzular bosh mavzuning tarmoqlari hisoblanadi. Kichik mavzular bosh mavzu doirasida qaysi masalalar haqida gapirilmoqchi ekanligini bildiradi.

Qoidadagi birinchi gap (Kichik mavzular bosh mavzuning tarmoqlari hisoblanadi) kichik va bosh mavzu tushunchalarini bir-biriga nisbatlangan holda anglatish maqsadini ko'zda tutadi.

5–9-sinflarda o'rganish ko'zda tutilayotgan qoidalarining ma'lum bir qismi o'quvchilarning matn tuzish yuzasidan amaliy, intuitiv egallagan bilimlariga ilmiy jihatdan tavsif berish mazmunida qabul qilinadi. Masalan, o'quvchilar *lekin, chunki, shuning uchun* va boshqa bir qator bog'lovchilarni nutqda qo'llay oladilar. Qoida ushbu amaliy malakalarni ongli ravishda idrok etishga undaydi. Onglilik kelgusida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini oladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, darsda **o'quvchilardan tanishilgan qoidani yod olish talab qilinmaydi**. O'quvchi tahliliy mashqlar jarayonida tegishli til birligining qo'llanishini qoida bilan asoslar ekan, o'zi sezmagani holda ushbu qoidani eslab qoladi, evristik mashqlar orqali ularni puxta o'zlashtiradi. Tuzilgan matnda yo'l qo'yilgan xatolar o'rganilgan qoidalarni eslash yo'li bilan tuzatilar ekan, qoidalar amaliy egallangan bilimga aylanib boradi.

Xullas, ona tili darslarida matn tuzilishini o'rganish jarayoni turli holatlarda tanishish mumkin bo'lgan, yo'l-yo'riqlar, tavsiflar tipida ixcham tuzilgan qoidalar ustidagi ishlarni ifoda etadi. Bu ishlar qoidalarni amaliyot, nutqiy tajriba orqali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. Шукрона – Ҳ. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.

2. Антонова Е.С. Где искать ресурсы для обновления школьной методики?/ Русский язык в школе. – 2007. № 6. С. 10. (10–14).

3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Mahmudov N. va b. To'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

MUNDARIJA

ONA TILI TA'LIMI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI	
Shohidaxon Yusupova Psixolingvistik kompetensiyani rivojlantirish omillari	3
Alijon Hamroyev Ona tili talimida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosi	7
Manzura Ernazarova, Nursaule Omonboeva Ona tili ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasi	13
G'ofir Hamroyev Ona tili ta'limining zamonaviy metodikasini yaratish: muammo va yechimlar	17
Klaraxon Mavlonova Matn tuzilishini o'rganishda qo'llanadigan qoidalar tavsifi	22
Saule Tajbenova O'quvchilarning til hodisalarini tadqiq etishga doir bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish	26
Sanobar Kuldasheva Ona tili darslarida multimediyadan foydalanishning psixologik jihatlari	28
Nilufar Xakimova O'qib tushunish malakasini shakllantirishga oid yondashuv va tamoyillar	31
Mahliyo Jakbarova O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish masalasi	34
G'iyos Do'stmurodov Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining adabiy talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni	38
Aziza Rustamova, Sanobar To'rayeva Boshlang'ich sinflarda ma'nodosh so'zlar ustida ishlashga doir topshiriqlar majmuyi	43
Mahfuza Abdijamilova "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida berilgan o'qish savodxonligiga oid materiallar tahlili	47
Shahlo Murodova O'qish savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlash uchun savol-topshiriq tayyorlash	50
Dilfuza O'rmonova Takrorlash va mustahkamlash darslari –filologik maqsad hamda nutq o'stirish maqsadini uyg'unlashtiruvchi omil	55
Go'zal Matmuratova Ona tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlash – ta'lim samaradorligini oshirish omili	58
Dildor Nurmuxamedova Og'zaki nutq savodxonligida hamkorlik ta'lim texnologiyalarining afzalliklari	61